

“TASDIQLAYMAN”

Samarqand davlat veterinariya
meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universiteti rektori,
professor X.B. Yunusov



2025-yil “___” –avgust

Agrar sohadagi oliy ta’lim muassasalari qoshidagi akademik litseylarning bitiruvchilarini ushbu oliy ta’lim muassasalariga yakka tartibda suhbat o’tkazish orqali o’qishga qabul qilishning baholash mezonlari

1. Abituriyentning yakka tartibdagi suhbatdagi natijalari 20 ballik tizimda baholanadi.

Bunda, abituriyentga 4 ta savol beriladi hamda ushbu savollarning har biri besh ballik tizimda baholanadi.

Abituriyent yakka tartibdagi suhbat natijalari bo’yicha 11 balldan kam ball toplagan hollarda uning bilimi “qoniqarsiz” deb baholanib, yakka tartibdagi suhbatdan utmagan deb hisoblanadi.

2. Suhbat komissiyasi abituriyentlarni quyidagi mezonlarga asosan baholaydi:

berilgan savollarga to’liq va aniq, shuningdek asoslab javob berishi, agrar faoliyat sohasi bilan bog’liq tizimli bilimlarga ega bo’lishi, ulardan mustaqil foydalanishni bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olishi - **5 ball**;

-berilgan savollarga aniq javob berishi, biroq javobni asoslab berolmasligi, agrar faoliyat sohasi bilan bog’liq bilimlarga ega bo’lishi, ulardan mustaqil foydalanishni bilishi, ijtimoiy muammolar va jarayonlarni tahlil qila olishi - **4 ball**;

-berilgan savollarga to’liq javob berolmasligi, agrar faoliyat sohasi bilan bog’liq bilimlarga ega bo’lishi, ulardan foydalanishni bilishi - **3 ball**;

-berilgan savollarga noaniq javob berishi, agrar faoliyat sohasi bilan bog’liq bilimlarga ega bo’lishi, ulardan foydalanishni bilmasligi - **2 ball**;

-berilgan savollarga javob bera olmasligi, agrar faoliyat sohasi bilan bog’liq bilimlarga yetarli darajada ega emasligi - **1 ball**;

-berilgan savollarga umuman javob bera olmasligi, agrar faoliyat sohasi bilan bog’liq bilimlarga umuman ega emasligi - **0 ball**.

3.Yakka tartibdagi suhbat natijalarini aniqlash uchun Suhbat komissiyasi a'zolari mustaqil ravishda ushbu Nizomning 2-ilovasiga muvofiq shakldagi baholash varaqalarini to'ldiradi va ularni suhbat komissiyasi kotibiga taqdim etadi.

Bunda, suhbat komissiyasi kotibi abituriyentga suhbat komissiyasi a'zolari tomonidan quyilgan ballarni hisoblab chiqib, o'rtacha ballni chiqaradi.

4.Yakka tartibdagi suhbat natijalari u o'tkazilgan kunning o'zida abituriyentlarga e'lon qilinadi va suhbat komissiyasining barcha a'zolari tomonidan imzolanadigan, komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadigan yig'ilish bayonnomasida qayd etiladi.

**Akademik litseylarning bitiruvchilarini
suhbat asosida o'qishga qabul qilish
bo'yicha mas'ul**



G'.M.Quldoshev